

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжонов Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILII KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILLIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилатхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich

Qo'qon davlat universiteti

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Email: aziznizomiddinovich@gmail.com

UO'K101.1:316.323(575:1) O'MKutubxona

ORCID ID: <https://orcid.org/orcid/0009-0000-4632-2476>

Farg'ona, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada sifatli ta'lim orqali kambag'allikka qarshi kurashda jaxon tajribasidan foydalanishning ahamiyati va Yangi O'zbekistonda bu masalaning zaruriyati tahliliy asosda yoritib, bu muammoni xorij tajribasidan foydalangan xolda samarali xalq etish masalasi ochib berilgan. Shuningdek, davlatlardagi ko'rsatkichlar orqali qiyosiy misollar yordamida asosan ijtimoiy-falsafiy jixatdan taqqoslab, muammoga atroflicha yondashilgan. Shuningdek jamiyatimizda xalq farovonligini ta'minlashning rivojlangan xalq farovonligi yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan o'tgan asosli strategik rejalar asosida ta'limiy, intellektual salohiyatli yosh avlodni tarbiyalash kambag'allikka qarshi kurashning eng samarali yo'nalishi ekanligi falsafiy tahlillar asosida ochib berilgan. Bu masalaga jamiyatimizdagi eng ustuvor strategik maqsadlarga olib boruvchi yagona kechiktirib bo'lmasa vazifa sifatida qaralgan.

Kalit so'zlar: BMT, Assambleya, siyosiy inqiroz, Rezolyutsiya, "Ming yillik hisoboti", evristik, GFR.

FIGHTING POVERTY AND ENSURING PEOPLE'S WELFARE THROUGH QUALITY EDUCATION IN NEW UZBEKISTAN

Meliboev Azizjon Nizomiddinovich

Kokand State University

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy

Annotation The article analyzes the importance of using world experience in the fight against poverty through quality education and the necessity of this issue in New Uzbekistan, and reveals the issue of effectively solving this problem using foreign experience. Also, the problem was approached comprehensively from a socio-philosophical perspective, based on comparative examples from indicators in countries. Also, it was revealed on the basis of philosophical analyses that the most effective way to combat poverty is to educate a young generation with educational and intellectual potential based on sound strategic plans based on the experience of developed countries with high levels of national welfare in our society. This issue was considered as the only urgent task leading to the most priority strategic goals in our society.

Keywords: UN, Assembly, political crisis, Resolution, "Millennium Report", heuristic, GFR.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i2/n21>

Sayyoramizda turli moliyaviy-iqtisodiy va siyosiy inqirozlarning kuchayishi, turli savdo urushlarining avj olishi natijasida dunyo mamlakatlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar cheklanayapti. Jahondagi bu kabi salbiy o'zgarishlar mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilyapti, aholining tinch-osuda hayotiga xavf solayapti. Dunyoda bu kabi global ijtimoiy-iqtisodiy, transmilliy muammolar o'z yechimini topmasa, mamlakatlar milliy iqtisodiyotida YAIM o'sishining sekinlashuvi, aholi real daromadlarning pasayishi, ishsizlikning ko'payishi natijasida kambag'allikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. BMTning

kuzatishicha, 38 eng kambag'al mamlakatlardan 20 tasi yoki urush holatida yoki urushdan endigina chiqqan mintaqalar. Eng ko'p nochor ahvolda yashovchilar Janubiy Osiyo mintaqasida qayd etilgan. Kambag'allarning eng yuqori qismi Afrikaning Saxara cho'liga yaqin hududlarida kuzatilgan. Umum aholining roppa-rosa 46,3 foizi katta qiyinchiliklarda kun kechirmoqda. Taxminan 1 mlrd. odam umuman hech qanday ta'lim va ma'lumotga ega emas. 1 mlrd.dan oshiqrog'i esa toza ichimlik suvini iste'mol qilish imkoniyatidan bebahra [1, <https://ziyouz.uz>]. Bunday holatlarda qanday ish tutish lozim?! Buning biror chora bormi?

Albatta, erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug' bo'lgan diyor – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi dastlabki natijalardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettiramiz va oldimizga qo'ygan katta-katta marralarga albatta erishamiz [2;] -deya ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Qolaversa, "O'quvchi va talabalarimiz joriy yilda xalqaro fan olimpiadalarida 51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalini qo'lga kiritib, o'z bilim va salohiyatini butun dunyoga namoyish qildi" [3;].

Kambag'allikka qarshi kurash masalasi global masala bo'lganligi tufayli BMT Bosh Assambleyasi kambag'allikka qarshi kurash bo'yicha o'n yilliklarni e'lon qilib, tegishli tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda. Birinchi o'n yillik o'z ichiga 1998-2007-yillarni qamrab olgan bo'lsa, ikkinchi o'n yillik 2008-2017-yillarga to'g'ri keldi. Hozir uchinchi o'n yillikka mo'ljallangan 2018-2027-yillarni qamrab oladigan Rezolyutsiyasi qabul qilindi. Ushbu Rezolyutsiyada oldingi o'n yillikda erishilgan natijalar darajasini saqlab qolgan holda qashshoqlik bilan kurashishni takomillashtirish hamda uni mustahkamlash yo'lida samarali va muvofiqlashtirilgan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgandir [4; №5. 2020. – B. 41-48.].

BMT tavsiyasiga binoan jahon amaliyotida aholi turmush kechirishining eng kam miqdori va iste'mol byudjetining eng kam miqdori asosida daromadlari darajasi bo'yicha moddiy ta'minoti turlicha bo'lgan quyidagi aholi guruhlari ajratib ko'rsatiladi:

- kambag'al oilalar – bunday oilalarda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad aholining turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan eng kam miqdordan past darajada yoki unga teng;
- kam ta'minlangan oilalar – bunday oilalarda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad aholining turmush kechirishi uchun zarur bo'lgan eng kam miqdor bilan eng kam iste'mol byudjeti miqdori o'rtasida joylashgan bo'ladi;
- ta'minlangan oilalar – bunday oilalarda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad aholining eng kam iste'mol byudjeti miqdori va oqilona iste'mol byudjeti miqdori o'rtasida joylashgan bo'ladi;
- boy oilalar – ularda jon boshiga to'g'ri keladigan daromad oqilona iste'mol byudjeti darajasidan yuqori bo'ladi [5; B. 230-231.].

Bunga asosan juda ko'plab mamlakatlar ham qashshoqlikdan butunlay qutilish rejalarini ishlab chiqqan [6; Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – B. 808-816.]. Jumladan Xitoy, Pokiston, Bangladesh kabi mamlakatlar shu qisqa davrda butunlay kambag'allikdan qutilish rejasini ishlab chiqqan va buni muvoffaqiyat bilan amalga oshirmoqda [7; Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – B. 808-816.].

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha D.Rikardo, R.Solou, A.Sen, A.Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa

shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan [8; P-135].

Jahon amaliyotida kambag'allikni baholashning quyidagi usullari ma'lum:

- statistik: bunda aholi daromadlarini jon boshiga taqsimlaganda, eng quyida turuvchi 10-20% aholi kambag'allarga ki-ritiladi;

- me'yoriy (minimal iste'mol savatining oziq-ovqat va boshqa an-dozalari me'yorlari bo'yicha), ya'ni minimal iste'mol savati asosida;

- mahrum bo'lganlik usuli -eng muhim mahsulot va tovarlarni to'yib iste'mol qilmaslik;

- evristik - jamoatchilik fikri yoki so'raluvchining nuqtai - nazaridan kelib chiqqan holda, turmush darajasining yetarli yoki yetarli emasligini baholash;

stratifikatsion – bunda kambag'allarga, ilgaridanoq o'zini-o'zi ta'minlash imkoniyatlari cheklangan kishilar kiri-tiladi (qariyalar, nogironlar, to'liq bo'lmagan va ko'p bolali oilalar, ota-onasiz bolalar, ishsizlar, muhtojlar va b.)

- iqtisodiy - bu kambag'allar toifasini, davlat ularning moddiy ta'minotiga yordam yo'naltirilgan imkoniyat resurslari orqali aniqlaydi.

Kambag'allikni aniqlagach, har bir davlat faqat o'ziga xos bo'lgan vazifalarni hal etishga intiladi. Agarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar sotsial larzalarni bartaraf etish uchun aholining o'rta va kambag'al qatlamlari o'rtasidagi chuqur tabaqalashga yo'l qo'ymaslikka in-tilsalar, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa kambag'allikning aniqlanishi aholining minimal turmush darajasini ta'minlab turish siyosati bilan bog'langan.

Kambag'allikni bartaraf etish muammosi yashash minimumini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Bir mamlakatda andoza uchun qabul qilingan yashash minimumi, boshqa mamlakatda qabul qilina olmaydi.

Dunyoda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan samarali dasturlar, strategiya va chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularda belgilangan masalalarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

Ushbu o'rinda 2019-yilda iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlar ham aynan jahonda kambag'allikni pasaytirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlari uchun mukofotlanganligini esga olish zarur bo'ladi. Bular amerikalik Maykl Kremer va kelib chiqishi asli hindistonlik bo'lgan Abxidjit Banerdji hamda uning rafiqasi Ester Dyuflo bo'lib, ular kambag'allikni aniqlash va uni bartaraf etish borasida ijtimoiy innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq etishdi [9; T. 108 (3): 681–716].

Ularning ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, kambag'allikni yuzaga keltiradigan omillar, shart-sharoitlar diagnostikasi bilan birga har bir mamlakat, hudud va oila kesimida bartaraf etish mumkinligi aniqlandi. O'zlashtirish ko'rsatkichi va o'quvchilarning bilim saviyasini ko'taradigan asosiy omil: ta'lim berish shaklini va o'qituvchilarning ta'lim berish sifatini oshirish, o'quvchilarga individual yondashuv usullarini kuchaytirish (dars mazmunini oshirishga) hamda bolalarni qiynab keladigan gijja kasalliklaridan forig' bo'lishlarini ta'minlashga bog'liq ekan. Bolalar organizmida joylashgan parazitlardan holi bo'lmasdan turib, ularga qanchalik bilim bermang, uning aqli va tafakkuri kengayib qolmasligini Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ham tasdiqladi.

Shu paytgacha qadar BMT, Jahon banki, Jahon valyuta tashkiloti va turli jamg'armalar tomonidan kambag'al davlatlarga milliardlab AQSH dollari qiymatida moliyaviy yordamlar, subsidiyalar yo'naltirilganiga qaramay, aholining savodxonligi oshib, o'zini o'zi ish bilan

ta'minlash va tadbirkorlik qobiliyati oshib qolmadi. Bularning barchasi besamar ketdi. Ushbu davlatlar kambag'allik balosidan qutula olishmadi. Aynan, Abxidjit Banerdji, Ester Dyuflo hamda Maykl Kremer buni isbotlab berishdi va dala tajribasi asosida kambag'allikdan forig' bo'ladigan "tabletka"ni kashf qilishdi hamda o'zlarining nomlarini iqtisodiyot tarixida muhrlab qo'yishdi [10; Xalq so'zi gazetasi, 25 Mart 2020].

Demak, olimlar o'z tadqiqotlarida asosan kambag'al oilalar farzandlarining sifatli boshlang'ich va o'rta ma'lumot olishlari, turli xil kasalliklarga qarshi emlash hamda ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilishga orqali kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan mexanizmlarni taklif qilishgan.

"Qayerda kishi kambag'allikda yashashga majbur bo'lsa, u yerda inson huquqlari buziladi. Bu huquqlarning hurmat qilinishi uchun birlashish har kimning muqaddas burchi". Jozef Vresinski tomonidan aytilgan ushbu so'zlar butun jahon qashshoqlikka qarshi kurashish harakatining shoriga aylandi. Ushbu harakatlar natijasida 17-oktyabr BMT Bosh assambleyasining 47/196-sonli rezolyutsiyasi (1992-yil 22-dekabr) bilan Xalqaro kambag'allikka barham berish kuni etib belgilandi.

Xulosa qilib aytganda nobel mukofotiga sazovor bo'lgan olimlar amerikalik Maykl Kremer va kelib chiqishi asli hindistonlik bo'lgan Abxidjit Banerdji hamda uning rafiqasi Ester Dyuflo ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, kambag'allikni yuzaga keltiradigan omillar, shart-sharoitlar diagnostikasi bilan birga har bir mamlakat, hudud va oila kesimida bartaraf etish mumkinligi aniqlandi. O'zlashtirish ko'rsatkichi va o'quvchilarning bilim saviyasini ko'taradigan asosiy omil: ta'lim berish shaklini va o'qituvchilarning ta'lim berish sifatini oshirish, o'quvchilarga individual yondashuv usullarini kuchaytirish dars mazmunini oshirishga qaratilgan zamonaviy, innavitsion jarayonlarni ta'lim tizimiga tadbiq yetish zaruriyati kambag'allikka qarshi kurashda va xalq farovonligini ta'minlashda samarali natijalar berishga ishonamiz.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. BMTning "Ming yillik hisoboti". <https://ziyouz.uz>.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 20-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
3. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2025-yil 26-dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi
4. Pardayev M.Q., Pardayev O. Mamlakatimizda kambag'allik darajasini kamaytirish yo'llari. "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali. №5. 2020. – B. 41-48. <http://www.economyjournal.uz>
5. Inson taraqqiyoti. Darslik: i.f.d., prof. Q.X.Abduraxmonov tahriri ostida. – T.: "Fan va texnologiya", 2013. – B. 230-231.
6. Qosimova G.Q. Mamlakatimizda kambag'allik darajasini kamaytirish yo'llari. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – B. 808-816. <http://www.scientificprogress.uz/uz>
7. Qosimova G.Q. Mamlakatimizda kambag'allik darajasini kamaytirish yo'llari. Scientific progress. Volume 2 | ISSUE 7 | 2021. – B. 808-816. <http://www.scientificprogress.uz/uz>
8. Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press.; Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.; Solow, Robert M. (February 1956). "A contribution to the theory of economic growth". Quarterly Journal of Economics.

- 70 (1): 65–94. doi:10.2307/1884513.; Sen A. (1981) Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford: Clarendon Press.
9. Kremer, Michael (1993), Population Growth and Technological Change: One Million B.C. to 1990, The Quarterly Journal of Economics (The MIT Press) . — T. 108 (3): 681–716.
10. Kambag'allik — ayb emas, biroq... Xalq so'zi gazetasi, 25 Mart 2020. <https://xs.uz/uzkr/post/>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.